

## BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MUSTAQIL TA’LIMNI TASHKIL ETISHNING INNOVATSION YECHIMLARI

**Matxoshimova Mukarramxon Rayimjon qizi**  
Farg‘ona viloyati Qo‘shtepa tumani 50-maktabning  
boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada muallif tomonidan boshlang‘ich sinflarda mustaqil ta’limni tashkil etish, o‘quvchilarni mustaqil ishlashi, unga tayyorlash, o‘qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish, kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida mustaqil ta’limni uyg‘un holda rivojlantirish haqida so‘z yuritiladi.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich ta’lim, mustaqil ta’lim, ta’lim samaradorligi, ta’lim texnologiyalari, darsdan tashqari mashg‘ulot.

### INNOVATIVE SOLUTIONS FOR THE ORGANIZATION OF INDEPENDENT EDUCATION IN PRIMARY CLASSES

#### ABSTRACT

This article illustrates about the organization of Independent Education in primary classes by the author, independent work of students, preparation for IT, problem-solving of materials by the teacher, intellectual development of Independent Education in schoolchildren of younger age.

**Keywords:** elementary education, independent education, educational effectiveness, educational technologies, extracurricular activities.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida interfaol usullardan foydalanib, ta’limning samaradorligi va ta’lim sifatini oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Ta’limning zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda tashkil etilishi o‘quvchilar egallayotgan bilimlarni o‘zlari qidirib topishlariga, mustaqil o‘rganib, tahlil qilishlariga, hatto xulosalarni ham o‘zlari keltirib chiqarishlariga qaratilgan [1,3,5,6].

O‘qituvchi bu jarayonda shaxs va jamoaning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi, shu bilan bir qatorda, boshqaruvchilik, yo‘naltiruvchilik vazifashini bajaradi [2,4,8].

Har bir o‘quvchining bilim, ko‘nikma, malakasini rivoj toptirishga alohida yondashuv zarur. Hozirgi globallashuv davrida esa bolalarning ta’lim-tarbiyasiga ota-on, mahalla, maktab birdek ma’sul hisoblanadi [7,9,10].

Holbuki, bola ulg‘ayib borgani sari mustaqil bo‘lib borishi barchaga sir emas. 1-sinfga borganda oilasi ko‘magi bilan vazifalarni bajargan bo‘lsa, 4-sinfga chiqib esa o‘zida mustaqil uy vazifalarini bajara olish ko‘nikmasi shakllanib ulguradi. O‘quvchilarda mustaqil ishslash, avvalo, unga tayyorlash o‘qituvchi tomonidan materiallarni muammoli tarzda bayon etish kabi yo‘llar bilan hosil qilinadi. Mustaqil faoliyat insonni ziyrak va hozirjavob qiladi. Bu faoliyat kichik yoshdagi maktab o‘quvchilarida uyg‘un holda rivojlanishi kerak. Buning uchun avvalo, o‘quvchilarni mustaqil faoliyatga ruhan tayyorlash, ularda biror ishni qila olishga va shu ishni sifatli qilib bajarishga ishonch hosil qildirish lozim.

Jumladan, boshlang‘ich sinf matematika darslarida mustaqil ta’lim asosida o‘qitish, ta’lim tizimining asosiy tamoyillaridan biri sanaladi. Mustaqil ta’lim o‘quvchilarining matematika bilish sohasidagi bilimlarini oshirishga, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga o‘rgatadi.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga darsda va darsdan tashqari mustaqil ish qilish uchun vazifalar beriladi. Bu esa o‘z navbatida matematika o‘qitish ta’limida o‘quv tarbiya jarayonining muhim shakli sifatida katta ahamiyat kasb etadi. O‘quvchilarni mustaqil faoliyatga o‘rgatishda quyidagilarga amal qilish lozim:

- beriladigan har bir topshiriq o‘quvchilarining imkoniyatlariga mos bo‘lsin va qiziqish uyg‘ota olsin;

- ish osondan qiyinga, soddadan murakkabga qarab yo‘naltirilsin, o‘quvchiga tushunarli bo‘lsin;

- ishni bajarishda bolalarda o‘ziga ishonch hissi uyg‘onsin, ishga kirishishda ular o‘zlarida dadillik sezsin;

- mustaqil bajariladigan topshiriqlar yakkama yakka tarzda amalga oshirilsin (hamma o‘quvchi uchun bir xil topshiriq berish bu mustaqil faoliyat emasligini eslatamiz), albatta bunda bo‘sh o‘zlashtiruvchi o‘quvchi tushuna olishi kerak.

- topshiriqlarni doimo navbatlashtirib, turini almashtirishga alohida ahamiyat berish kerak;

- topshiriqlarni hamma bir vaqtda boshlab, ma’lum vaqtda tugatishi kerakligini eslatib, bo‘sh o‘zlashtiruvchi bolalarni shu talabni bajarishga ko‘niktirish lozim;

- ish joyi hamisha qulay, saramjon-sarishta bo‘lishi (parta ustida ortiqcha narsalar bo‘lmasligi) kerak;

- topshiriqlar darsning turli bosqichida bajarilishi mumkin;

- darslik, didaktik materiallar bilan ishslashda uzviylik bo‘lishi maqsadga muvofiqdir.

Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining matematika fani bo‘yicha bilimlarini kengaytirish va chuqurlashtirish, hayotga ongli munosabatni shakllantirish ta’limning tarbiyaviy ta’moyilini kuchaytirish, qiziqishini oshirish, mustaqil va ijodiy fikrlashga

o'rgatish, bularning barchasi aynan mustaqil ta'lif asosida amalga oshiriladi. Bunday ishlar o'z shakli va mazmuniga ko'ra xilma xil bo'lib, bevosita asosiy darslarning davomi hisoblanadi.

Hozirga kelib, mustaqil ta'lifda amalga oshirish qiyin bo'lgan vazifalarni hal qilishga keng yo'l ochildi. Albatta mustaqil ta'lif negizini mustaqil ishlar tashkil qiladi. Matematika darslarida mustaqil ta'lifning turli xil usullaridan ya'ni ta'lif texnologiyalaridan foydalanish foydadan holi bo'lmaydi. Uyga beriladigan vazifalar ham mustaqil ishning bir turidir.

Bolalarga, iloji boricha sinf sharoitida asosiy bilim va malakalarni singdirish, uyga vazifalar berishni me'yorlash kerak. Bolalar darsdan keyin (og'ir, mashaqqatli mehnatdan keyin) tiniqib dam olsalar, ko'proq ochiq havoda bo'lib, harakatli o'yinlar, sayr, kuzatishlar bilan vaqtlarini o'tkazib, tunda osuda uhlab, ertangi kungi darslarga yaxshi kayfiyat bilan kelsalar, darsni o'zlashtirish yaxshi bo'ladi. Shuning uchun uy vazifalari oson bo'lishi, asosan, bolalarni kuzatishlarga undashi lozim.

O'quvchilarda mustaqil ishlash, avvalo, mustaqil ishlarga tayyorlash, o'qituvchi tomonidan materialning muammoli tarzda bayon etilishi kabi yo'llar bilan hosil qilinadi. Bunda quyidagi topshiriqlarni muntazam ravishda berib borgan ma'qul: materialni darslik asosida o'rganish, namunaviy mustaqil misollar, yangi turdag'i topshiriqlar, metodlardan oqilona foydalanish, zamonaviy texnologiyalarni mashg'ulot vaqtida qo'llash, o'zlashtirilgan usullarini amalda qo'llashga oid vazifalarni bajarish, ijodiy ishlarni bajarish kabi. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda mustaqil ishlar muhim vosita bo'lib xizmat qiladi.

Ular quyidagi xususiyatlarga ko'ra harakterlanadi:

- mustaqil ishlarda bajarish so'rangan shartlar o'quvchilardan izlanuvchanlik talab qilishi;
- o'quvchilarni mustaqil holda hukm, xulosa va umumlashmalar chiqarishga yo'naltirilishi;
- mustaqil ishlarni bajarish jarayonida o'quvchilarda yangi bilimlarni egallashga ehtiyoj tug'ilishi.

Boshlang'ich sinflarning matematika darslarida o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatish jarayonida ularning hisoblash, fikrlash darajasi barobar rivojlanadi.

O'quvchilarni mustaqil fikrlashga ega bo'lishi ularning o'quv ko'nikma va malakalariga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Shunga ko'ra, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatish "Kadrlar tayyorlash" milliy dasturida belgilab qo'yilgan ta'lif-tarbiya jarayonini insonparvarlashtirish talabiga to'la mos keladi.

O'quvchilarning mustaqil faoliyati ijodning turli darajasi bilan kechishi mumkin. Ammo o'quvchilarning har qanaqa mustaqil faoliyati, albatta, o'qituvchi tomonidan tashkil etiladi: sharoit yaratiladi, ko'rsatmalar beriladi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)

1. Turg'unboyev B., Ergasheva D. Mustaqil ishlarni tashkil etish-boshlang'ich sinf o'quvchilar o'quv-biluv faoliyatini faollashtirish vositasi sifatida //Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры. – 2023. – Т. 3. – №. 1 Part 1. – С. 162-164.
2. Qodirova M. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini mustaqil fikrlashga o'rgatishda modulli ta'lism texnologiyalaridan foydalanish //Scientific progress. – 2021. – Т. 2. – №. 6. – С. 464-467.
3. YARASHOV M. Boshlang 'ich sinf matematika ta'limini ijodiy tashkil etishda ta'lim tamoyillarining o'mni //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2020. – Т. 1. – №. 1.
4. Мухтарова Л. А. Boshlang'ich Ta 'Lim Samaradorligini Oshirishda Innovatsion Ta'lism Texnologiyalarining O 'Rni //Научный Поиск В Современном Мире. – 2017. – С. 119-120.
5. Qosimjonovna A. Y. BOSHLANG 'ICH SINF O 'QUVCHILARINING MUSTAQIL TA'LIM OLISHLARI //Новости образования: исследование в XXI веке. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – С. 80-82.
6. Diloram E. Boshlang'ich sinf o'quvchilar bilish faoliyatida mustaqillikni rivojlantirish omillari //Образование наука и инновационные идеи в мире. – 2023. – Т. 16. – №. 1. – С. 47-51.
7. Saidova G. BOSHLANG'ICH TA'LIMDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYALARNI JORIY ETISHNING ILMIY-PEDAGOGIK ASOSLARI //ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz). – 2023. – Т. 28. – №. 28.
8. Yuldashev F. BOSHLANG 'ICH SINFLARDA INTEGRATSIYALASHGAN DARSLARНИ TASHKIL ETISH //Boshlang'ich ta'limga innovatsiyalar. – 2021. – Т. 1. – №. Архив№ 2.
9. Xusanov R. BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI DARSLARIDA O'QUVCHILARDA NUTQIY KOMPETENSIYANI RIVOJLANTIRISH //Академические исследования в современной науке. – 2023. – Т. 2. – №. 5. – С. 100-103.
10. Abidovna X. D., Abduqodir o'g'liX. J. TA'LIM TURLARI VA ULARNING AMALGA OSHIRILISH MEXANIZMLARI // " GERMANY" MODERN SCIENTIFIC RESEARCH: ACHIEVEMENTS, INNOVATIONS AND DEVELOPMENT PROSPECTS. – 2023. – Т. 9. – №. 1.